



2025-yil “29” dekabr

01/0037

TASDIQLAYMAN
“Navoiyazot” AJ Ijro organi huzuridagi
Xavflarni boshqarish qo‘mitasi raisi
_____ **F.X. Samadov**
«___» _____ **2025 yil**

“NAVOIYAZOT” AKSIYADORLIK JAMIYATI IJRO ORGANI TARKIBIDAGI
XAVFLARNI BOSHQARISH QO‘MITASINING
1-SON YIG‘ILISH BAYONNOMASI

Sanasi: 2025 yil ____ dekabr

Ishtirokchilar:

Qo‘mita raisi:

Samadov Farrux Xamzaevich

Boshqaruv raisi v.b.

Qo‘mita a‘zolari:

Vafoev Muxammadali Mirzoevich

Boshqaruv raisining ishlab chiqarish, mahalliy lashtirish masalalari, sanoat va axborot texnologiyalari sohasida kooperatsion aloqalarni kengaytirish bo'yicha birinchi o'rinbosari

Jalilov Dilshodjon Dilmurodovich

Boshqaruv raisining moliya, transformatsiya va xususiylashtirish bo'yicha birinchi o'rinbosari

Jurakulov Baxtiyor Shermamatovich

Boshqaruv raisining marketing, sotish va sotib olish bo'yicha o'rinbosari

O'roqov Orifjon Akbarovich

Ichki audit xizmati rahbari

Cho'ttiev Xamidulla Abdullaevich

Bosh buxgalter

Ochilov Azimjon To'xtamishovich

Komplaens-nazorat boshqarmasi boshlig'i v.v.b

Isoyev Ruslan Ilyosovich

Yuridik boshqarma boshlig'i

Esanov Oybek Ulug'bekovich

Korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig'i

KUN TARTIBI:

1. “Navoiyazot” AJning “Ichki nazorat siyosati” va “Ichki nazorat metodikasi”ni ko‘rib chiqish va kelishish to‘g‘risida.
2. “Xavflarni boshqarish siyosati”, “Xavflarni identifikatsiya qilish va baholash metodikasi” va “Xavf-appetiti va xavf-tolerantlikni belgilash metodikasi”ni ko‘rib chiqish va kelishish to‘g‘risida.

ESHITILDI:

“Navoiyazot” AJ (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) boshqaruv raisi v.b. F.X. Samadov so‘zga chiqib, yig‘ilish ishtirokchilariga 2025 yil 15 fevraldagi 07/29-3-3383-sonli xatga asosan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi va “UzAssets” AJ xalqaro konsultantlar bilan birgalikda yirik davlat korxonalarini transformatsiya qilishning keyingi bosqichini amalga oshirish, zamonaviy operatsion modellarni joriy etish, moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash hamda biznes jarayonlarini optimallashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan “Aksiyador kutilmasi”ni va u asosida ishlab chiqilgan “Yo‘l xarita”da ko‘rsatilgan barcha tashabbuslarning o‘z vaqtida va to‘liq hajmda amalga oshirilishini ta‘minlash uchun zarur tadbirlar amalga oshirilayotganligini bildirildi.

Shuningdek, Xavflarni boshqarish tizimini joriy etish loyihasi doirasida 2025 yil 21-iyul kuni “KPMG Audit” MChJ bilan 132 ish kuniga mo‘ljallangan, 3-bosqichdan iborat C-UZA-25-00113 sonli shartnoma imzolanganligi aytib o‘tildi.**Shuningdek, “KPMG Audit” MChJ bilan hamkorlikda xavflarni boshqarish va ichki nazorat tizimini joriy etish buyicha konsalting xizmati doirasida quyidagi hujjatlar ishlab chiqilganligi to‘hrisida ta’kidlandi:**

- Xavflarni boshqarish siyosati;
- Xavf-appetiti va xavf-tolerantlikni aniqlash metodikasi;
- Xavflarni aniqlash va baholash metodikasi;
- Ichki nazorat siyosati;
- Ichki nazorat metodikasi.

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqqan holda, kun tartibidagi 1-masala yuzasidan Jamiyat boshqaruv raisi v.b. F.X.Samadov so‘zga chiqib, “Navoiyazot” AJda ichki nazorat tizimini joriy etish va samarali faoliyat yuritishini ta‘minlash maqsadida “Ichki nazorat siyosati” va “Ichki nazorat metodikasi” taqdim etildi.

Mazkur Ichki nazorat siyosat va ichki nazorat metodikasi COSO Internal Control tamoyillariga asoslangan bo‘lib:

- ichki nazoratning yagona va tizimli yondashuvini belgilaydi,
- faoliyat ustidan oqilona ishonchlikni ta‘minlash,
- moliyaviy va boshqaruv hisobotlarining ishonchligini oshiradi,
- amaldagi qonunchilik va ichki hujjatlariga rioya etishni ta‘minlaydi.

Kun tartibidagi 2-masala bo‘lgan va COSO ERM va ISO 31000 standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan “Xavflarni boshqarish siyosati” va “Xavflarni identifikatsiya qilish va baholash metodikasi” Jamiyat boshqaruv raisi v.b. F.X.Samadov tomonidan tushuntirildi.

Mazkur Xavflarni boshqarish siyosati va Xavflarni identifikatsiya qilish va baholash metodikasiga muvofiq:

- Dastlab faoliyatning tabiatiga xos ravishda mavjud bo‘lgan xavflar darajasi baholanadi,
- keyinchalik amalga oshirilayotgan nazorat va boshqaruv choralari inobatga olingan holda **xavflarning qoldiq darajasi** aniqlanadi;
- Shuningdek, metodika xavflarni aniqlash, baholash, tasniflash hamda qoldiq xavfni aniqlash tartibini belgilashi tushuntirildi.

Shuningdek, kun tartibidagi 2-masalaning davomi sifatida Xavflar darajasini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan **“Xavf-appetit va Xavf-tolerantlikni belgilash metodikasi”** to‘g‘risida axborot berildi. Mazkur metodika Jamiyat tomonidan qabul qilinishi mumkin bo‘lgan xavflarning maqbul darajasini belgilash, strategik va operatsion qarorlarni qabul qilishda xavf-yondashuvini ta‘minlash, shuningdek, Jamiyat barqarorligi va rivojlanish maqsadlari o‘rtasida muvozanatni saqlash uchun xizmat qilishi tushuntirildi.

QAROR QILINDI:

1.1 “Navoiyazot” Ajning “Xavflarni boshqarish siyosati”, **“Xavflarni identifikatsiya qilish va baholash metodikasi”** va **“Xavf-appetit va Xavf-tolerantlikni belgilash metodikasi”** kelishilsin. Mazkur siyosat va metodikalar “Xavflar reyestri”ni shakllantirishda hamda Ijro organi va Kuzatuv kengashi uchun hisobotlarni tayyorlashda qo‘llanilsin. **“Xavf-appetiti va xavf-tolerantlikni belgilash metodikasi”** strategik va operatsion qarorlarni qabul qilish, shuningdek, rejalashtirish va monitoring jarayonlarida qo‘llanilsin. Shuningdek, Jamiyatning Ijro organ rahbariga tasdiqlashga kiritilsin va barcha tarkibiy bo‘linmalarida qo‘llash uchun amalga kiritish buyicha buyruq chiqarilsin.

2.1 “Navoiyazot” Ajning “**Ichki nazorat siyosati**” va “**Ichki nazorat metodikasi**” kelishilsin. Mazkur siyosat va metodika Jamiyatning Ijro organ rahbariga tasdiqlashga kiritilsin va barcha tarkibiy bo‘linmalarida qo‘llash uchun amalga kiritish buyicha buyruq chiqarilsin. Metodikaning joriy etilishi ustidan nazorat Xavflarni boshqarish bo‘limi boshlig‘i (Qo‘mita kotibi-Sayidova Shaxlo Toshtemirovna) va Ichki audit xizmati zimmasiga yuklatilsin.

Tasdiq**Boshqaruv raisi v.b.****F. X. Samadov**

Rozilik**Boshqaruv raisining ishlab
chiqarish bo‘yicha birinchi
o‘rinbosari v.v.b.****M. M. Vafoyev****Boshqaruv raisining moliya,
transformatsiya va
xususiyashtirish bo‘yicha
birinchi o‘rinbosari****D. D. Jalilov****Boshqaruv raisining
marketing, sotish va sotib
olish bo'yicha o'rinbosari****B. Sh. Jurakulov****Ichki audit xizmati rahbari****O. A. O‘roqov****Bosh buxgalter****H. A. Cho'ttiyev****Xizmat boshlig‘i****A. T. Ochilov****Boshqarma boshlig'i****B. B. Muxamatsaitov****Boshqarma boshlig'i****O. U. Esanov**

Mas'ul

Bo'lim boshlig'i



Sh.T. Sayidova